

**ONA TILI DARSLARIDA UNLI VA UNDOSH TOVUSHLARNI  
O'QITISHDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH**

*Dilshoda Olimjon qizi Homidova*  
TOSHDO 'TAU 3-bosqich talabasi  
[dilshodahomidova39@gmail.com](mailto:dilshodahomidova39@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi unlilar tizimi, unli tovushlarning to'g'ri talaffuz me'yorlari, mashq turlari, talaffuzdagi fonetik mashqlarning ahamiyati ochib berilgan. O'quvchilarda unli va undosh tovushlarning talaffuzi va imlosini farqlolmaslik yoki chalkashtirish kabi muammolar va ularni o'qitishdagi samarali usullar berib o'tilgan. O'quvchilarda ba'zi unli va undosh tovushlarning talaffuzidagi tafovutlarni farqlash va ularni turli xildagi topshiriqlar orqali yechish yo'llari ko'rsatilgan.

**KALIT SO'ZLAR** fonetika, unlilar, undoshlar, talaffuz, me'yor, usullar, mashq, topshiriq.

**Abstract :** This article reveals the Uzbek vowel system, the correct pronunciation of vowels, types of exercises, and the importance of phonetic exercises in pronunciation. Problems such as not distinguishing or confusing the pronunciation and spelling of vowels and consonants in students and effective methods of teaching them are given. Students are shown the ability to distinguish the differences in the pronunciation of some vowels and consonants and solve them through various tasks.

**Keywords:** phonetics, vowels, consonants, pronunciation, standard, methods, exercise, task.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье раскрывается система узбекских гласных, правильное произношение гласных, виды упражнений, а также значение фонетических упражнений в произношении. Студентам были поставлены такие проблемы, как неразличение или путаница в

*произношении и написании гласных и согласных, а также эффективные методы их обучения. Учащимся демонстрируется умение различать различия в произношении некоторых гласных и согласных и решать их посредством различных заданий.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА** фонетика, гласные, согласные, произношение, норма, приемы, упражнения, задание.

Til o'rganish jarayonida fonetika — ya'ni tovushlar tizimi va ularning talaffuzi — asosiy va muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, og'zaki nutqni to'g'ri shakllantirishda unli va undosh tovushlarning aniq, tabiiy va adabiy talaffuz qilinishi o'quvchining fonetik kompetensiyasini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Unli va undosh tovushlar, til tizimida eng muhim fonetik birliklar bo'lib, ular nutqning melodikasi, ohangdorligi va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ularning to'g'ri talaffuzi til o'rganuvchining nutq madaniyatini shakllantiradi, so'zlarni to'g'ri o'qib eshitishda va aytishda asosiy rol o'ynaydi. Unli va undosh tovushlar talaffuzini o'rganishda mashqlarning o'rni muhimdir. Bu mashqlar nafaqat talaffuzni yaxshilaydi, balki nutq a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirish, eshitish differensiasiyasini rivojlantirish va artikulyatsiyani mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Mashqlar yordamida o'quvchilar tovushlarning joylashuvi, cho'zilishi, og'iz ochilishi darajasi, lablar ishtiroki kabi xususiyatlarni ongli ravishda anglaydilar hamda ularni to'g'ri ifodalashga o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, noto'g'ri talaffuzning kamayishiga, aniq talaffuz va nutq ohangining rivojlanishiga olib keladi. Fonetikani metodik jihatdan o'rgangan olimlar A.G'ulomov, B.To'xliyev, Yuldosheva Dilorom va boshqalar.

Har bir unli va undosh tovushning talaffuzi va xususiyatlari o'rganilgach, talaffuzdosh ( bir-biridan bir tovush bilan farqlanuvchi, turli xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar tushuniladi) so'zlar hosil qilishga oid o'quv topshiriqlaridan unumli foydalansa bo'ladi. Chunonchi, 5-sinfda unli tovushlarning talaffuzi

o'rganilgach, o'quvchilardan faqat bir unli bilan farqlanuvchi (masalan, ber-bor, bur, bo'r, bir) so'zlar hosil qilish, undosh tovushlar talaffuzi o'rganilgandan keyin bir undosh tovush bilan farqlanuvchi so'zlar qatorini hosil qilish, ularning ma'nosini izohlashni talab etadigan topshiriqlardan samarali foydalanish mumkin.[6]

Fonetika bo'limini o'rganishda topshiriqlarning katta qismi adabiy talaffuz me'yорини shakllantirish va imlo savodxonligini oshirishga qaratiladi. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham o'z me'yorlariga ega. Og'zaki nutqning me'yorlari (orfoepiya) bilan belgilansa, yozma nutq me'yori imlo (orfografiya) bilan belgilanadi. Adabiy talaffuz kishi madaniyatining birinchi belgisidir.

Talaffuz me'yorlarida bosh asos talaffuzning belgiga mumkin qadar yaqinligidir. Masalan: biz boryapmiz deb yozsak, bu so'zni shunga yaqin talaffuz etishimiz ham kerak. Bu so'zni *boropti*, *borotti*, *borvotti*, *borutti* deb aytish noto'g'ri talaffuz sanaladi. Ona tili darslarida adabiy talaffuz, imlo, unli va undosh tovushlarni o'qitishga oid ko'plab mashqlarni qo'llash foydalidir. Quyidagi topshiriq va usullar

#### Topshiriq.

Berilgan so'zlar tarkibidagi qaysi tovushlar talaffuz va imloda moslashmasligini aniqlang.

1. Do's	5. Go'sh	9. Urushmoq	13. Yomma-yon
2. Istambul	6. Milyon	10. Tovlamoq	14. Reyting
3. Boqqa	7. Gram	11. Istirob	15. Masxaraboz
4. Maktap	8. Burin	12. Yombosh	16. Darvozavon

Bu metod orqali o'quvchi talaffuzdagi va yozuvdagi tovushlar o'rtasida tafovutlarni aniqlay oladi. Har bir so'zning og'zaki va yozma shaklini fonetik jihatdan taqqoslashni o'rganadi. Berilgan topshiriq orqali o'quvchilar og'zaki va yozma nutq orasidagi fonetik-grafik tafovutni tahlil qilish, talaffuz va imlo

o'rtasidagi nomuvofiqlikni ilmiy asosda izohlash ko'nikmalarini egallaydi. Shu orqali o'quvchilarda fonetik tahlil madaniyati, imlo va talaffuzni farqlash malakasi shakllanadi.[3]

Topshiriq.

Quyidagi so'zlarni jadvalga imlosi va talaffuziga ko'ra joylashtiring.[2]

*Oila, traktor, direktor, noyabr, muomala, okean, daraxt, ketyapti, o'sdi, urush, avtomat, amir, harf, ufq, ilm.*

Imloda	Talaffuzda
Oila, ...	Oyila, ...

Ona tili darsliklaridagi orfoepiyaga doir o'quv materiallarini berishda muallif aholi hududiy talaffuzining (sheva) tilga ta'sirini inobatga olishlari kerak.

Talaffuzning imloga va aksincha yozuvning og'zaki nutqqa ta'siri bo'lishi tabiiy. Talaffuzdagi har xillikka sabab sheva bo'lsa, adabiy talaffuzni shakllantirishning samarali usuli – fonetik mashqlar ustida ishslash. Talaffuz va imloda ko'pchilik o'quvchilar bo'g'iz undoshi “h” tovushini chalkashtiradilar. Bu uchun ko'pgina fonetik mashqlar ustida ishslash kerak.

Topshiriq.

### **“X mi yoki H”**

- |                |               |                 |
|----------------|---------------|-----------------|
| 1. ...ammom    | 5. ...isob    | 9. ...arakat    |
| 2. ...alol     | 6. ...ayol    | 10. ...iyla     |
| 3. ...onadon   | 7. ...izmat   | 11. ...avotir   |
| 4. ...avf      | 8. ...omashyo | 12. ...atti-    |
| ...arakat      |               |                 |
| 13. ...aspox'  | 15. ...ilvat  | 17. ...irmon    |
| 14. ...asharot | 16. ...arsang | 18. ...ususiyat |

**“Xatoni top” metodi.** Bu metodda o'quvchilar so'zlar juftligida to'g'ri yozilgan so'zni belgilaydilar [1]va uning imlosiga diqqat qiladilar. "Xatoni top" metodi – bu didaktik o'yin asosida shakllangan ta'limiy texnologiyalardan biri

bo'lib, u o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini rivojlantirishda, xususan, orfografik ko'nikmalarini mustahkamlashda samarali vositadir. Bu metod kognitiv yondashuvga asoslanadi. Kognitiv yondashuvga ko'ra, o'quvchilar bilimni faoliy Orqali o'zlashtiradi. Xatoni topish, taqqoslash, tahlil qilish, aniqlash kabi aqliy faoliyatlar o'quvchilarning e'tibor, xotira va analistik fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi.

Mikrob - mikro'b	Me'zon – mezon
Mikrasko'p – mikroskop	Kerotin - keratin
Million – milyon	Morfalogiya - morfologiya
Biotin – biyotin	Tonna – to'nna
Diolog – dialog	Qand - qant
Sabzavod – sabzavot	Muallim - malim
Daromad – daromat	Bahor – bohor

Bundan tashqari unli va undosh tovushlarni o'qitishda quyidagi didaktik o'yinlar va metodlar foydalidir. O'yinli metodlar (kartochkalar, rolli o'yinlar, tovushli jumboqlar) multimedia vositalari( audiomatnlar, interaktiv doska, videodarslar) orqali ham unli va undosh tovushlarni o'qitish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Unli va undosh tovushlarni o'qitishda samarali usullarni qo'llash til o'rganish jarayonining muvaffaqiyat kalitidir. Talaffuzning to'g'ri shakllanishi nafaqat tovushlarning aniq artikulyatsiyasiga, balki ularni tinglash va farqlash qobiliyatiga ham bog'liq. Shu bois, fonetik mashqlarni audio vositalar bilan uyg'unlashtirish o'quvchining tovushlarga bo'lgan sezgirligini oshiradi va nutqini yanada tabiiy qiladi. Minimal juftliklar va interaktiv o'yinlar orqali olingan tajriba talaffuzdagi xatolarni kamaytirib, o'rganilayotgan tilga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shuningdek, har bir o'quvchining ona tilidan kelib chiqadigan fonetik qiyinchiliklarni inobatga olgan holda individual yondashuv qo'llash natijani sezilarli darajada yaxshilaydi. Eng muhim, muntazamlik va sabr-toqat fonetikani mukammal o'zlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. G'ulomov va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent – “Fan va texnologiya”-2012.
2. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006
3. D. Yuldasheva. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. “Durdona”nashriyoti. Buxoro-2021.
4. 5-sinf uchun darslik. I qism. Ona tili. Toshkent -2024.
5. 11-sinf uchun darslik. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018.
6. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yuldasheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent- “Nosir”nashriyoti. 2009.